Taniqli geolog olim, akademik Habib Abdullaevning 110 yilligi nishonlandi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limi tomonidan akademik Habib Abdullayev tavalludining 110 yillik yubileyiga bag’ishlangan “O’zbekiston ilmiy salohiyati yuksalishiga salmoqli hissa qo’shgan inson!” mavzusidagi sayyor ilmiy-amaliy seminar o’tkazildi.











Unda FA Navoiy bo’limi rahbariyati, yetuk olimlari va yosh ilmiy xodimlari, mehnat faxriylari hamda Yosh olimlar kengashi a’zolari ishtirok etdi. Shuningdek, tadbirda H.Abdullayevning nevarasi, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi bosh direktori H.Abdullayev, O’zbekiston Respublikasi Davlat geologiyasi va mineral resurslar qo’mitasi huzuridagi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti yetakchi ilmiy xodimi X.D.Ishbayev va yosh olimlari, “Navoiyuran” DK bosh geologi o’rinbosari B.I.Mirxodjayev hamda mahalliy aholi vakillari qatnashdilar.

Ilmiy-amaliy seminar jarayonida ishtirokchilar geologiya fanining milliy va xalqaro miqyosdagi taniqli vakillarini H.M.Abdullayev nomidagi akademik medallar bilan taqdirlashni qayta yo’lga qo’yish, uning nomidagi jamg’arma faoliyatini tiklash va oliy o’quv yurtlarida iqtidorli yosh geologlarga maxsus stipendiya

ta’sis etish zarurligini ta’kidladilar.

Bundan tashqari, tadbirda ishtirok etgan olimlar, mahalla oqsoqollari va Langar MFY ma’muriyati mahalla binosida bir xona ajratib, H.M.Abdullayev hayoti va ilmiy faoliyatini yoshlarga targ’ib qilish maqsadida muzey tashkil etish hamda Langar qo’rg’oni hududida geolog-qidiruv ishlarini o’tkazib, mahalliy aholini ish bilan ta’minlash imkonini beradigan yangi konlar ochish kabi takliflarni muhokama qilib, ularni hayotga tatbiq etish uchun rejalar tuzib oldilar.